

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№7

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
IYUL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



UZBEKISTAN

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
286 sahifa, iyul, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Yashil ish o'rinlari va ekologik ta'lim: o'zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar	12
Rashidov Saidislom, Zaripova Mardona	
Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining informatsion assimetriyaga ta'siri	16
Babanazarova Nilufar Xolmatovna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budget mablag'laridan foydalanish mexanizmining o'rni va ahamiyati	23
Rustamova Gulmira Aliqulovna	
Dasturiy mahsulotlar logistikasi	30
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	35
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Oliy ta'lim muassasalarini "yashil universitet" tizimiga transformatsiya qilish istiqbollari (buxoro davlat texnika universiteti va malayziyaning oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik misolida)	39
Rahmatov Shuxrat Axatovich	
Davlat qarzi siyosati samaradorligini oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash	43
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Оптимизация бизнес-процессов и модернизация занятости в условиях цифровизации	47
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Strategik rivojlanish sharoitida investitsion jozibadorlikning o'rni	54
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlashtirish	61
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	
Альтернативный подход к распределению финансовых ресурсов для эффективного финансирования высшего образования	65
Гулшат Карлибаева	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	70
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
O'zbekistonda jahon sivilizatsiyasiga ta'sir o'tkaza oladigan zamonaviy qarashlarga ega memolarning yetishmasligi	74
Nabiyev Hamidjon Mirzo o'g'li	
General Concept and Principles of Quality Management System	78
Atamirzayev Nodirbek Bekmirzayevich	
Transformatsiya jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirish	84
Absamatov Anvar Ergashovich	
Интегральный показатель отбора экспертов для принятия коллегиальных диагностических решений	94
Uraqov Shokir Ulashovich	
Korxona faoliyatini tahlil qilishda boshqaruv hisobining roli	100
Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	
Raqamli iqtisodiyot va buxgalteriya hisobini tashkil etish	107
Abdullayev Abdurauf	
Moliyaviy hisobotni transformatsiya qilish	112
Sheraliyev Xayrulla Karimovich	
O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri	116
Samarqand davlat uiversiteti, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	



Raqamli iqtisodiyotning turizm sohasidagi bandlik shakllariga ta'siri.....	120
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Xalqaro moliya-kredit institutlari bilan hamkorlikning xorij tajribasi.....	126
Qosimov Bobur Sobirovich	
Jahonda moliyaviy munosabatlar rivojlanishida korporativ tuzilmalar faoliyatining o'rni	131
Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
Iqtisodiyotning real sektor subyektlarining faoliyatini moliya-kredit mexanizmlari orqali rag'batlantirishning xalqaro tajribasi	136
Mahmudov Nurali Komilovich	
O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri	140
Sanakulova Iroda, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Sho'r suvni chuchuklashtirish uchun absorber sifatida foydalanilgan quyosh elementlari tuzilmasining tajriba sinov tahlillar	144
Tursunov Muxamad Nishanovich, Sabirov Xabibullo, Axtamov Tohir Zuxriddinovich, Abriyev Shaxzod Akbar o'g'li, Bobomuratov Sardor Abdurasul o'g'li	
Развитие банков в системе цифровых финансовых услуг в Республике Узбекистан.....	151
Даденова Гульхан Кенесбаевна	
Внедрение экологических стандартов в транспортной системе: проблемы и перспективы	156
Абдурахманова М.Т.	
Elektron o'quv kontenti orqali mustaqil ta'lim va tadqiqot faoliyatini rivojlantirish	162
Ahunova Tamannoxon Zokir qizi	
Raqamli transformatsiya sharoitida davlat va xususiy sektorda korporativ boshqaruv strategiyasini yangilash: O'zbekiston modeli	167
Tojialiye Sherdorbek Elmurod o'g'li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
Jismoniy shaxslar uchun aksiyalar bozoriga kirish strategiyalari va investitsiya imkoniyatlari: O'zbekiston va xalqaro tajriba tahlili	171
O'raqov Bekzodbek Abdurayxon o'g'li	
Energetika tarmog'ida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (mhxs) joriy etishning nazariy asoslari	176
Uralov Temur Boxodir O'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlarini mablag'larini shakllanishi va nazorat qilinishi	181
Xolbekov Ulug'bek Toshpulat o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reyting ko'rsatkichlarini oshirishning strategik boshqaruv mexanizmlari	185
Mamajonova Muxlisaxon Muzaffar qizi	
Economic Efficiency of Digital Twin and Bim Technologies in Construction Enterprises.....	189
Nigmatjonova Nozima Ulmasjonovna	
Uzumchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari	197
Tursunov To'liqin Jo'raqulovich	
Совершенствование проверки налогового аудита в Узбекистане	202
Юсупов Мансур Расулович	
Navoiy viloyatida mehnat resurslaridan foydalanishni ekonometrik modellashirish usullari	207
Hamroyev Anvar Ashurovich	
Texnika fanining bugungi kunda o'rni va ahamiyati	214
Ulasheva Shaxlo Tagayevna, Xujamurotova Mashxura G'ayrat qizi	
Globalashuv sharoitida mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	219
Nurmurodov Olmos Eshmuradovich	
Banklarda xalqaro hisob-kitoblar hisobini takomillashtirish	226
Uzaqova Gulmira Yuldashovna	



Korxona mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar va ularning o'zaro bog'liqligi. (artel korxonasi misolida)	230
Abdug'aniyev Ilyosbek Shavkatbek o'g'li	
Gaz sanoatiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning moliyaviy jihatlarini	238
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
Namangan viloyatida investitsiya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.....	242
Inamov Farxodjon Ikrom o'g'li	
Математическое моделирование кинематики движения шаров различного размера в барабанных мельницах	246
Акмал Жуманазаров	
Влияние «зеленых» инвестиций на устойчивое экономическое развитие: теоретические и прикладные аспекты	253
Исомов Б. С.	
Bozor xizmatlari ko'rsatish sohasini innovatsion rivojlantirishning konseptual asoslarining shakllanish xususiyatlari	260
Alimdjanova Oydin Nodirovna	
Korxonalar faoliyatida yashil marketing strategiyalarini qo'llash imkoniyatlari.....	266
Rahmatov Dilshod Shermat o'g'li	
Sanoatda raqamli egizak texnologiyalarining o'rni	271
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishda xorijiy tajribalar va ularning ahamiyati	278
Shixiyev Raxim Muhammedovich	



QISHLOQ XO'JALIGIDA YER RESURSLARIDAN FOYDALANISHDA XORIJIY TAJIRIBALAR VA ULARNING AHAMIYATI

Shixiyev Raxim Muhammedovich

Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti

ORCID: 0000-0003-2207-9357

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi yer resurslaridan foydalanishning xorijiy tajribalari, yer fondining tuzilishi, unumdor yerlarning taqsimoti hamda yerdan oqilona foydalanishning tashkiliy va iqtisodiy asoslari yoritilgan. Rivojlangan davlatlar tajribasi (AQSH, Hindiston, Rossiya, Xitoy) asosida qishloq xo'jaligida yer resurslarini boshqarish, yerga egalik huquqlari, hosildorlikni oshirish usullari, raqamli texnologiyalardan foydalanish va davlat siyosatining o'rni tahlil qilingan. Yer degradatsiyasi, ekin maydonlari kamayishi va aholiga to'g'ri keladigan yer hajmining qisqarishi kabi global muammolar yechimlari ham ko'rib chiqilgan. Xalqaro tashkilotlarning statistik ma'lumotlari va ilmiy yondashuvlar asosida takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yer resurslari, qishloq xo'jaligi, xorijiy tajriba, yer fondi, samarali foydalanish, hosildorlik, FAO, yer siyosati.

Abstract: This article examines foreign experiences in the use of land resources in agriculture, the structure of land funds, the distribution of fertile lands, and the organizational and economic foundations of rational land use. Using the examples of developed countries (USA, India, Russia, China), the study analyzes land management systems, land ownership rights, methods of increasing productivity, the use of digital technologies, and the role of government policies. Global issues such as land degradation, shrinking arable land, and the decline in per capita land availability are also explored. Based on statistical data from international organizations, practical recommendations are provided.

Keywords: land resources, agriculture, foreign experience, land fund, efficient use, productivity, FAO, land policy.

Аннотация: В данной статье рассматривается зарубежный опыт использования земельных ресурсов в сельском хозяйстве, структура земельного фонда, распределение плодородных земель, а также организационно-экономические основы рационального землепользования. На примере развитых стран (США, Индия, Россия, Китай) проанализированы системы управления земельными ресурсами, права собственности на землю, методы повышения урожайности, применение цифровых технологий и роль государственной политики. Также рассмотрены глобальные проблемы, такие как деградация почв, сокращение посевных площадей и уменьшение земельных ресурсов на душу населения. На основе статистических данных международных организаций представлены практические рекомендации.

Ключевые слова: земельные ресурсы, сельское хозяйство, зарубежный опыт, земельный фонд, эффективное использование, урожайность, FAO, земельная политика.

KIRISH

Hozirgi davrda yer resurslaridan samarali foydalanish masalasi global miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aholi sonining o'sishi, sanoatlashuv jarayonining jadallashuvi va iqlim o'zgarishlari fonida mavjud yer maydonlarini oqilona boshqarish har bir davlatning ustuvor strategik vazifasiga aylangan. Xususan, qishloq xo'jaligida yer resurslari nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, balki iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolishda ham muhim o'rin tutadi.

Yer resurslarining iqtisodiy mexanizmlar asosida boshqarilishi, infratuzilma tizimining mavjudligi va yuridik asoslarning mukammalligi rivojlangan davlatlar, jumladan, Shvetsiya, Germaniya va AQSH tajribasida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bunday yondashuvda yer banklari, baholash va soliq xizmatlari, birjalar kabi infratuzilmalar muhim rol o'ynaydi. Yer munosabatlarini tartibga solishda barcha ishtirokchilar — yer mulkdoridan tortib davlatgacha bo'lgan bog'lanish zanjiri bir butun tizim sifatida faoliyat yuritishi talab etiladi.

Yer islohotlarini amalga oshirish, yer fondidan samarali foydalanish uchun zarur bo'lgan moliyaviy manbalar turli yo'nalishlardan shakllanadi: yer soliqlari, ijara haqlari, kompensatsiya to'lovlari, yer va boshqa ko'chmas mulklarni sotishdan tushgan mablag'lar, ro'yxatga olish yig'implari, shuningdek, davlat subsidiyalari va xalqaro moliyaviy ko'maklar.



Jahon tajribasi ko'rsatmoqda: yer resurslari hajman katta bo'lishiga qaramay, ular ichida faqat 3,2 milliard gektari (ya'ni umumiy yer fondining taxminan 24 foizi) qishloq xo'jaligi faoliyati uchun yaroqli hisoblanadi. Yerning sifati (tuproq unumdorligi, tipologiyasi) va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yer maydoni ushbu resurslardan foydalanish samaradorligini belgilab beradi.

Shu munosabat bilan ushbu maqolada qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari, xalqaro tajribalar, ularning tarkibiy xususiyatlari va rivojlanish istiqbollari keng qamrovda tahlil etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanish, ularni boshqarish va samaradorligini oshirish masalalari ko'plab olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Xususan, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida ishlab chiqilgan ilmiy adabiyotlarda yer resurslarini iqtisodiy boshqarish tizimlari, yer fondi tarkibi, yerga egalik shakllari, yerni baholash va soliq tizimi kabi jihatlar keng yoritilgan.

FAO (Food and Agriculture Organization) hisobotlari. FAO tomonidan har yili e'lon qilinadigan "State of the World's Land and Water Resources for Food and Agriculture (SOLAW)" hisobotlarida qishloq xo'jaligi yerlarining holati, ularning degradatsiyasi, ekin maydonlari kengayishi va samaradorligini oshirishga doir xalqaro statistik ma'lumotlar keltirilgan. FAO, shuningdek, yer resurslarini raqamli xaritalash, monitoring qilish va irrigatsiya tizimlarining samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

FAO va Jahon banki ma'lumotlariga asoslangan xalqaro tahlillar shuni ko'rsatadiki, jahondagi umumiy yer fondining atigi 36–37 foizi qishloq xo'jaligiga yaroqli hisoblanadi. Shu sababli, mavjud yer resurslaridan oqilona foydalanish va ularni degradatsiyadan asrash global miqyosdagi dolzarb masalalardan biridir.

Kolbasov O.S. o'zining klassik asarlarida yer munosabatlarini huquqiy va tashkiliy jihatdan tartibga solish masalalariga e'tibor qaratgan. Uning fikricha, yer resurslari bo'yicha yuritiladigan davlat siyosati faqat ma'muriy choralalar bilan emas, balki iqtisodiy mexanizmlar yordamida ham olib borilishi lozim.

Klaus Deininger (Jahon banki eksperti). Deininger o'zining "Land Policies for Growth and Poverty Reduction" nomli monografiyasida yer siyosati, yerga egalik va foydalanish huquqi, agrar islohotlar, shuningdek, yer bozorini liberallashtirishning rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ta'sirini tahlil qilgan. U yer islohotlarining qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishdagi ahamiyatini asoslab beradi.

Hans Binswanger-Mkhize. Binswanger o'zining tadqiqotlarida (xususan, "Agricultural Land Redistribution: Toward Greater Consensus") yerga egalik huquqi, yerni qayta taqsimlash va yer bozori rivoji orqali qishloq xo'jaligida barqarorlikka erishish imkoniyatlarini o'rganadi. U yer resurslarining notekis taqsimlanishi iqtisodiy tengsizlikni kuchaytirishini ta'kidlaydi.

John W. Bruce. Bruce yerga bo'lgan huquqiy yondashuvlarni chuqur o'rgangan olimlardan biridir. Uning ishlari, xususan, "Legal Frameworks for Land Access: The World Bank's Experience" nomli tadqiqotida yerga egalik huquqining aniq va qonuniy asoslarda mustahkamlanishi investitsiyalar va barqaror foydalanishni rag'batlantirishi ko'rsatilgan.

World Bank va IFAD (International Fund for Agricultural Development). Ushbu xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan ishlab chiqilgan ko'plab strategik hujjatlarda (masalan, "Land Governance Assessment Framework" — LGAF) yer boshqaruvi tizimining ochiqqligi, samaradorligi, yer bozorlarining rivoji va yerga bo'lgan huquqlarni qayd etishning ahamiyati ko'rsatib berilgan.

McKinsey & Company tahlillari. Ushbu konsalting kompaniyaning 2020-yildagi "Agriculture and Land Use: The Untapped Opportunity" hisobotida qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishda texnologiyalarning, ayniqsa, raqamli monitoring va IoT texnologiyalarining roliga alohida e'tibor qaratilgan.

European Environment Agency (EEA). EEA yer degradatsiyasi, tuproq unumdorligining pasayishi, antropogen omillar ta'siri, iqlim o'zgarishi va shaharsozlik jarayonlarining yer resurslariga salbiy ta'siri haqida batafsil hisobotlar e'lon qiladi. Yer fondining monitoringi va kartografiyasi bo'yicha eng ilg'or tizimlardan biri aynan EEAg tegishli.

Shuningdek, linDEAL platformasining 2023-yildagi statistik ma'lumotlariga ko'ra, AQSH, Hindiston va Rossiya yer maydoni va ekin maydonlari bo'yicha jahon bozorida yetakchi o'rinlarni egallab turibdi. Bu davlatlarda yer resurslaridan foydalanish agrotexnik usullar, irrigatsiya tizimlari va raqamli texnologiyalar bilan bevosita bog'langan.

Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy manbalar va xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishda kompleks yondashuv — huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va texnologik choralarni uyg'unlashtirish orqali eng yuqori natijalarga erishish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda qishloq xo'jaligi sohasida yer resurslaridan samarali foydalanish va xorijiy tajribalarni o'rganish asosiy ilmiy maqsad sifatida belgilandi. Maqola muallifi tomonidan kompleks tahliliy yondashuv asosida quyidagi metodlar qo'llanildi:

Tizimli tahlil metodi – yer resurslaridan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniqlashda qo'llanildi. Bu metod orqali resurslardan foydalanish samaradorligi har xil omillar bilan bog'liq holda baholandi.

Taqqoslama tahlil (komparativ) usuli – rivojlangan davlatlar (AQSH, Germaniya, Hindiston, Rossiya) tajribalari bilan O'zbekiston, xususan Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitlari o'rtasida solishtirma tahlillar olib borildi. Bu orqali xorijiy amaliyotdan olinadigan o'zlashtirish mumkin bo'lgan jihatlar aniqlab chiqildi.

Statistik tahlil – Jahon banki, FAO, linDEAL platformasi kabi xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari asosida global yer fondining tarkibi, ekin maydonlari hajmi, yer resurslarining sifati va ulardan foydalanish ko'rsatkichlari statistik jihatdan baholandi.

Ilmiy adabiyotlar sharhi – mavzuga oid ilgari chop etilgan ilmiy maqola, monografiya va xalqaro konferensiya materiallari o'rganilib, mavjud yondashuvlar tahlil qilindi. Jumladan, Shixiyev R.M., Kolbasov O.S., FAO va Jahon banki ma'lumotlariga tayanilgan.

Tarixiy-ijtimoiy yondashuv – yer resurslaridan foydalanish jarayonidagi tarixiy bosqichlar va ularning bugungi holatga ta'siri o'rganildi. Shu asosda qishloq xo'jaligi yerlarining o'zgarishi va ularning samaradorligi evolyutsiyasi tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqori rivojlangan davlatlar tajribasi (xususan, Shvetsiya, Germaniya, AQSH) ko'rsatishicha, yer munosabatlarini tartibga solishning samarali iqtisodiy mexanizmi mos infratizimni (yer banklari, mulklarni baholash va soliqqa tortish xizmatlari, birjalar va shunga o'xshash) talab etadi. Bundan tashqari, butun tizim yer munosabatlari zanjirining aniq yer mulkdoridan, yer egasi va yerdan foydalanuvchidan boshlab, butun davlatgacha bo'lgan barcha bo'g'inlarini qamrab olsagina ishlaydi.

Yer islohotlarini amalga oshirish uchun zarur pul mablag'lari quyidagi manbaalar hisobiga tashkil topadi:

- yer uchun to'lovlar (yer solig'i va ijara haqi);
- noqishloq xo'jalik maqsadlari uchun olinadigan qishloq xo'jalik yerlari uchun qoplama to'lovlar;
- yerni va boshqa ko'chmas mulklarni sotishdan ajratmalar;
- yer egalari va yerdan foydalanuvchilarni ro'yxatga olish bilan bog'liq yig'imlar;
- yer siyosatini, yerdan oqilona foydalanishni va uni muhofaza qilishni tashkil etishni amalga oshirishga yo'naltiriladigan maqsadli davlat dotatsiyalari va korxonalar foydalaridan ajratmalar;
- boshqa manbaalar (jarimalar, xalqaro yordam va shunga o'xshash).

Yer resurslari suv va rekreatsiya resurslari kabi muhim ahamiyatga ega. Bu butun sayyora maydonining 26 foizini, 13,2 milliard gektarni tashkil qiladi. Ammo FAO shuni ko'rsatadiki, ulardan faqat 3,2 milliard gektar potentsial qishloq xo'jaligi uchun yaroqli.

Yer resurslari (dunyo yer fondi) – oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi xom ashyosi ishlab chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan yer maydonidir.

Yer resurslari o'ziga xos xususiyatlari:

- yer fondi doimiy;
- masofadan turib harakatlana olmaydi;
- Har bir yer uchastkasidan faqat bitta usulda foydalanish mumkin - ekin maydonlari, yaylovlar, shaharsozlik, transport magistrallari.

Zamonaviy mutaxassislar sayyoramizning yer resurslarini ikkita asosiy ko'rsatkich bo'yicha baholaydilar:

- Sifat: tipologiyasi va tuproq unumdorligi.
- Hududiy vaqf: aholi jon boshiga qancha yer to'g'ri keladi.

Sayyoraning umumiy yer fondi 13,2 mlrd gektarni (yer maydonining 26%) tashkil etadi (1-rasm).



1-rasm. Yer resurslarining tuzilishi

Qishloq xo'jaligi yerlari jahon yer fondining atigi 37% ni tashkil qiladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti va Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, yer resurslari bo'yicha yetakchilar (2-rasm):



2-rasm. yer resurslari bo'yicha yetakchilar


Meksika, Janubiy Afrika, Nigeriya, Sudan va Kanada ham kuchli o'nlikka nomzod sifatida ko'rilmogda.

Qishloq xo'jaligi yerlari ekin maydonlari, plantatsiyalar, o'tloqlar, bog'lar, yaylovlar va sabzavotzorlar deb ataladi. Ular umumiy yer fondining 36 foizini (4,8 mlrd. gektar) tashkil etadi. Ananaga ko'ra, qishloq xo'jaligi yerlari bo'yicha yetakchilar (3-rasm):



3-rasm. Qishloq xo'jaligi yerlari bo'yicha yetakchilar

Har yili sayyoramiz aholisini yer resurslari bilan ta'minlash kamayib bormoqda. Agar 1980 yilda bir kishiga 0,3 gektar ekin maydonlari to'g'ri kelgan bo'lsa, 2020 yilda bu ko'rsatkich allaqachon 0,2 gektarga yetdi. Ushbu ko'rsatkich mintaqaga qarab o'zgaradi (4-rasm):



4-rasm. Ekin maydonlari bo'yicha yetakchi hududlar

Dunyo qishloq xo'jaligi yerlarining 70% o'tloq (3,3 mlrd. ga) va 28% ekin maydonlari (1,3 mlrd. ga) tashkil etadi. Ko'p yillik ko'chatlar hududning atigi 2% ni tashkil qiladi.

FAO ma'lumotlariga ko'ra, ekin ekiladigan qishloq xo'jaligi erlari bo'yicha uchta davlat yetakchi bo'ladi:

1. AQSH (157,7 mln. ga). Reytingdagi yuqori o'rin qulay iqlim sharoiti va tekis relefning ustunligi bilan ta'minlanadi. Qo'shma Shtatlar qishloq xo'jaligi ekinlar, soya va bug'doy etishtirishga ixtisoslashgan. Mamlakat eng yirik don eksportchilaridan biridir.



2. Hindiston (156,1 mln. ga). Qulay iqlim va yetarli miqdorda yog'ingarchilik qishloq xo'jaligini rivojlantirishga yordam beradi. Unda aholining 50% band. Mamlakat hududining $\frac{1}{3}$ qismi sug'oriladigan yerlardan iborat bo'lib, Hindiston sug'oriladigan yer maydoni bo'yicha yetakchiga aylanadi. Bu yerda sholi, shakarqamish, bug'doy, kartoshka, paxta va boshqa ekinlar yetishtiriladi.

3. Rossiya (121,6 million gektar). Qishloq xo'jaligining eng katta maydoni Oltoy o'lkasida joylashgan. Mamlakat o'simlik moyi va bug'doy yetkazib beruvchi yetakchi o'rinda turadi.

Birinci uchlik Xitoy (119 million gektar) va Braziliyadan (55,8 million gektar) pastroq. Kanal (38,6 million gektar), Nigeriya (34 million gektar), Ukraina (32,9 million gektar), Argentina (32,6 million gektar) va Avstraliya (30,6 million gektar).

Dunyo miqyosida umumiy hududga nisbatan unumdor yerlarning eng katta ulushiga ega bo'lgan davlatlar qatoriga Kuba, Urugvay, Vengriya, Mozambik va Tailand kiradi. Bu mamlakatlarda yer resurslarining unumdorligi yuksak bo'lib, qishloq xo'jaligi faoliyatini yuritish uchun qulay ekologik va iqlimiy sharoitlar mavjud. Ayniqsa, allyuvial (allyuvial-cho'kindi) tuproqlarning tarqalgan hududlari eng serhosil hisoblanadi. Bunday tuproqlar Benilyuks mamlakatlari, Bangladesh, shuningdek, Nil, Yantszi va Xuanxe daryolari havzalarida joylashgan. Yuqori unumdor hududlar tarkibida Dunaydan Amurgacha cho'zilgan keng dasht zonalar ham ajralib turadi. Ular o'simlikshunoslik va donli ekinlar yetishtirish bo'yicha alohida ahamiyatga ega bo'lib, tarixan oziq-ovqat xavfsizligi va agrar siyosatning asosiy tayanchi bo'lib xizmat qilgan.

Shudgorlangan yerlar maydoni bo'yicha dunyoda yetakchilik qilayotgan mamlakatlar — Rossiya, Qozog'iston, Xitoy, AQSh, Kanada va Hindistondir. Ushbu davlatlarda katta maydonlarda dehqonchilik qilinadi, bu esa aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish va agrar tarmoqni rivojlantirish uchun muhim omildir. Bunda, albatta, texnologik daraja, sug'orish tizimlari, yerga ishlov berish texnikalari va tabiiy omillar muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, dunyo miqyosida unumdor va qimmatli yer resurslari bilan bir qatorda, yetishtirishga mutlaqo yaroqsiz bo'lgan yerlar ham mavjud. Bunday hududlarga Grenlandiya, Shimoliy Rossiya, AQSh va Kanadaning shimoliy qismlari, Afrikadagi keng cho'llar, O'rta Osiyo va Avstraliya cho'llari, shuningdek, dunyo bo'ylab joylashgan baland tog' tizimlari kiradi. Bu yerlar tabiiy sharoitlar, harorat, yog'ingarchilik, muzliklar yoki relefning og'irligi sababli agrar foydalanishga yaroqsiz hisoblanadi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, eng katta unumsiz yer ulushi Osiyoda — 42 foizga yaqin, eng past ulush esa Yevropada bo'lib, atigi 17 foizni tashkil etadi. Bu raqamlar agrar siyosat, yer resurslarini boshqarish va ekotizimlarni barqaror saqlashda muhim statistik mezon bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yer resurslari har qanday mamlakatning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Qishloq xo'jaligida yer fondining to'g'ri boshqarilishi, undan oqilona va samarali foydalanish nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi, balki mamlakatning umumiy iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Ushbu maqolada o'rganilgan xorijiy tajribalar (AQSH, Hindiston, Rossiya, Xitoy va boshqa mamlakatlar misolida) shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishda ilg'or texnologiyalar, huquqiy va tashkiliy mexanizmlar, yerga egalik va yerni boshqarish tizimining ochiqqligi asosiy omillardan hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda raqamli monitoring, yer kadastrining avtomatlashtirilgan tizimlari, soliq va subsidiyalarga orqali rag'batlantirish kabi chora-tadbirlar muvaffaqiyatli yo'lga qo'yilgan.

FAO, Jahon banki, IFAD kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlar asosida aniqlanishicha, yer resurslari hajmi global darajada kamayib bormoqda. Yer degradatsiyasi, eroziya, sho'rlanish, iqlim o'zgarishi kabi ekologik muammolar mavjud yer fondining unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, bugungi kunda qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishda samaradorlik, tejamkorlik va barqarorlik prinsiplari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston va xususan Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida ham yer resurslaridan foydalanishda xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, ulardan moslashtirilgan holda foydalanish, davlat siyosatini shu asosda takomillashtirish muhim strategik vazifa hisoblanadi. Bu borada quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Yer kadastrini va monitoring tizimlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish;

Samarali yerdan foydalanish bo'yicha soliq va subsidiyalarga asoslangan iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

Agrar sohada yerga egalik huquqlarini mustahkamlash va yuridik asoslarini kuchaytirish;

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ilmiy-amaliy loyihalarni amalga oshirish.

Shunday qilib, xalqaro tajribani inobatga olgan holda yurtimizda qishloq xo'jaligi yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, agrar barqarorlikni ta'minlash va ekologik xavfsizlikni kuchaytirishga erishish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Deininger, K. (2003). Land Policies for Growth and Poverty Reduction. World Bank and Oxford University Press. <https://doi.org/10.1596/0-8213-5071-4>.
2. Binswanger-Mkhize, H. P., Bourguignon, C., & van den Brink, R. (Eds.). (2009). Agricultural Land Redistribution: Toward Greater Consensus. World Bank Publications.
3. Bruce, J. W. (2006). Legal Frameworks for Land Access: The World Bank's Experience. FAO and World Bank.
4. Food and Agriculture Organization of the United Nations. (2021). The State of the World's Land and Water Resources for Food and Agriculture – Systems at breaking point (SOLAW 2021). FAO. <https://doi.org/10.4060/cb9910en>.
5. World Bank. (2013). Land Governance Assessment Framework: Implementation Manual for Assessing Governance in the Land Sector. Washington, DC: World Bank.
6. International Fund for Agricultural Development (IFAD). (2020). Land Tenure Security and Sustainable Development. IFAD. <https://www.ifad.org/en/web/knowledge/publication>.
7. McKinsey & Company. (2020). Agriculture and land use: The untapped opportunity. McKinsey Sustainability. <https://www.mckinsey.com/business-functions/sustainability/>
8. European Environment Agency (EEA). (2019). Land and soil in Europe: Why we need to use these vital and finite resources sustainably. EEA Report No 4/2019. <https://www.eea.europa.eu/publications/land-and-soil-in-europe>
9. FAO & ITPS (Intergovernmental Technical Panel on Soils). (2015). Status of the World's Soil Resources (SWSR) – Main Report. Rome: FAO. <https://www.fao.org/3/i5199e/i5199E.pdf>
10. Шихиев Р.М. Цифровая экономика в развитии сельского хозяйства. Экономика и предпринимательство. № 3 (140) 2022 г. Volume 16 Number 3. 323-326 с.
11. Shixiyev R.M. Raqamli iqtisodiyot sharoitda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning hozirgi holati. Berdaq nomidagi QDU Axborotnomasi. № 4/1 (55) 2021. 53-56 b.
12. Shixiyev R.M. Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning statistik ko'rsatkichlari tahlili. "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning statistic tahlilini takomillashtirishning nazariy va uslubiy jihatlari" Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami Toshkent 27 may 2022 y. 124-127 b.
13. Shixiyev R.M. Qishloq xo'jaligini resurslaridan samarali foydalanishda xorijiy tajribalar. «XXI asr fanlarida nazariy qonuniyatlardan foydalanishning amaliy muammolari va yechimlari» xalqaro ilmiy – amaliy konferensiyasi (Toshkent, 2024- yil 6-8-may) -B. 1239-1242.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100